

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
7-NOYABR
N:45
(66844)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

– Jannatmakon diyorimizda pishib yetilgan
saxovatli kuz ne'matlaridan Siz ham
bahramand bo'ling! – deydi
kuz malikasi Dilbaroy Komilxonova.

«OBUNA – 2012»
DAVOM ETMOQDA!

Qadrli o'quvchilar,
«Tong yulduzi»
Sizning gazetangiz! Eng yaqin
do'stingiz, sirdoshingiz,
maslahatgo'yingiz.
Obuna barcha aloqa bo'limlarida
davom etmoqda.
Nashr ko'rsatkichi – 198.

«MEHRJON SAYLI»GA
MARHAMAT!

4-bet

Suratlar muallifi FAZLIDDIN

41-moddasi: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan

O'QUVCHI YON DAFTARIGA

HUSNIXAT BO'YICHA MUTAXASSIS

Mashhur fransuz yozuvchisi Balzak

odamlarning husnixatiga

qarab, ularning fe'l-atvorini aytib

berar va, ko'pincha,

o'zining bu qobiliyatidan

mag'rurlanib,

do'stlari oldida maqtanib

yurardi. Kunlardan bir kuni tanish ayol unga

yosh bolaning mashq daftarini tutqazib, uning

fe'l-atvorini aytib berishni so'rabdi. Balzak

diqqat bilan yozuvga qarabdi. «Bu bola

mening o'g'lim emas, nimani o'ylagan

bo'lsangiz, bemaol aytavering», debdi ayol.

— Xo'p, sizga rostini aytaman, bu bola

juda yomon va erinchoq, — debdi Balzak.

— Bu juda g'alati ku! — kulibdi ayol. — Axir

bu sizning bolalikdagi daftaringiz ku!..

Balzak nima deyishini bilolmay lol qolibdi.

Ingliz tilidan

Bahora RAHMATOVA tarjimai

«Short Stories» («Kichik

hikoyalar») kitobidan

JUMBOQ SAVOL- JAVOBLAR

Bolalar!

Ikki donishmand o'rtasida bo'lib

o'tgan bu savol-javoblar tafakkuringizni

boyitadi. O'qib ko'ring, bunga o'zingiz

guvoh bo'lasiz:

— Tiriklar ko'pmi, o'liklar?

— Tiriklar ham, o'liklar ham mavjud

emas.

— Jonivorlarning eng ayyori qaysi?

— Insonga notanish jonivor eng

ayyoridir.

— Kun avval paydo bo'lganmi yo tun?

— Kun bir kun avval paydo bo'lgan.

— Hayot kuchlimi yo o'lim?

— Hayot kuchli!

NEGA QULOQ

IKKITA?

Bir yebto'ymas kimsa norozi

to'ng'illab:

— Nega og'iz bitta-yu, quloq ikkita? —

deb so'rabdi.

Donishmand miyig'ida kulib:

— Kamroq yeb, ko'proq eshitsang,

buni tushunib olasan! — deya javob qilibdi.



SHAHNOZA tayyorladi

NAMANGANDAN KO'NGLIMIZ TO'Q

Tasodif degani bor narsa ekan. Biz yaqinda bunga yana bir bor amin bo'ldik. Chust shahridagi 9-umumta'lim maktabiga kiraverishda ikki o'quvchining suhbatlari beixtiyor qulog'imizga chalindi.

— Sen yana «Tong yulduzi»ga obuna bo'libsang. Namuncha shoshmasang. U shunchalik yaxshi gazetami?

— Albatta! Men o'tgan yili bu gazetani o'qib, ko'p narsalarni bilib oldim. Undagi test savollarini yechganim bois, adabiyot, kimyo, geografiya, matematika fanlaridan

a'lo baholarga chiqib oldim. Sahifalardagi qiziqarli hikoyalar, she'rlar, ibratli tahrirlardan qimmatbaho sovg'alar beriladi...

— Voy zo'r ekan-ku! Men ham bu gazetaga obuna bo'laman.

Ikki o'rtoqning suhbatidan biz ham quvondik. Chunki obuna oldi safariga

chiqqan edik-da.



Mamlakatimizda turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan ko'plab gazeta va jurnallar chop etilayotganidan xabaringiz bor. Ayni damda ularga 2012-yil uchun obuna mavsumi qizg'in davom etyapti. Bu borada bolalar nashrlari ham ortda qolishmayapti. Sevimli «Tong yulduzi» gazetangiz kelgusi yilda ham o'z sahifalarida Siz sevgan yozuvchi va shoirlarning sara asarlarini, tengdoshlaringizning turli mavjudagi maqola va xabarlarini chop etishni rejalashtirgan. Tahririyat ijodkorlari esa sizga ma'qul bo'ladigan yangi ruknlar, bir-biridan qiziq loyihalarni taxt qilib qo'yg'alar. «Obuna — 2012» mavsumini tashkil-lashtirish maqsadidagi ilk safarimiz

go'zal Namangan viloyatiga bo'ldi.

Buning o'ziga xos sabablari mavjud.

Namanganlik

o'quvchilar gaze-

tamizning eng faol

muxlislari hisob-

lanishadi. Naman-

gan viloyati Xalq

ta'limi boshqar-

masining ma'rifiy

ishlar bo'yicha

rahbar o'rinbo-

sari Xayrulla aka Abdurahmonovning

ma'lumotlariga qaraganda, viloyatda

«Tong yulduzi» o'quvchilari soni bu yil

har qachongidan ham ko'p bo'lishi

kutilmoqda. Bu borada Namangan,

Chust, Uchqo'rg'on va To'raqo'rg'on

tumani hamda Namangan shahrida olib

borilayotgan ishlar tahsinga loyiq.

Safarimiz davomida gazetamiz

muxlislarning takliflari, fikr va muloha-

zalarini tinglab, tegishli xulosalar

chiqardik. Chust shahridagi 2-akademik

litsey o'quvchilari gazetamiz sahifalarida

jahon adabiyoti durdonalaridan berib

borishimizni so'rashdi. Shahardagi stol

tennisiga ixtisoslashgan maktab o'quv-

chilarining mashg'ulotlarini kuzatib,

ularning mamlakatimiz va xorijda

bolalar o'rtasida xalqaro miqyosda

o'tkazilgan nufuzli musobaqalarda

qo'lga kiritgan ko'plab yutuqlari haqida

eshitib, hayratimiz oshdi.

Viloyatning Kosonsoy, Yangi-

qo'rg'on, Chortoq, Uychi, Norin,

Mingbuloq va Pop tumanlaridagi

o'quvchilar ham obuna ishlarida

faollikni oshirsalar, ayni muddao

bo'lardi.

TAHRIRIYATDAN:

O'tgan yillar mobaynida Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi, tumanlardagi mutasaddilar, maktab, litsey va kollejlardagi ma'naviyatni qadrlovchi insonlarning sidqidildan bergan ko'maklari bois. Namangan viloyati o'quvchilari obuna bo'yicha oldingilar safida bo'lib keldilar. Bu yil ham ular peshqadamlikni qo'ldan bermasliklariga ishonchimiz komil.

O'z muxbirlarimiz

O'LCHOVLARGA SIG'MASDI

«Tong yulduzi» gazetasi shu yilgi 12-sentabr sonida «Daholar yoshligida...» rukni ostida ularning yoshligi haqida ibratli ma'lumotlar berilgan ekan. Uni «qadr» mezoni asosida baholaydigan bo'lsak, qalin-qalin kitoblardan ham yuqoriroq pog'onaga ko'tariladi.

Boisi, uni o'qigan o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Inson yoshligidayoq ilm cho'qqilarining eng yuqori pog'onalariga ko'tarila olishi mumkinligini anglaydi. O'ziga «Nega

men ham yoshlikdayoq buyuk

bo'la olmayman?» degan

savolni berib, bebaho

vaqtidan unumli foydala-

nishga intiladi. O'quv-

chilarda buyuklarga xos

metin irodani shakllan-

g'ich sinf o'qituvchilari

ko'maklashib borishlari

zarur.

«Daholar yoshligida...»

nomli kitob chiqarilsa, uning qadri

o'lchovlarga, mezonlarga sig'magan

bo'lardi.

Tursunali YUSUPOV,

Farg'ona viloyati, Rishton

tumanidagi 33-maktabning tarix

fani o'qituvchisi

«TILLA BOLA» TUG'ILDI

Dunyo ahli yetti milliardinchi inson qayerda tug'ilar ekan, degan savolga

javob izlayotgan edi.

Chaqaloq Rossiyaning

Kaliningrad shahrida

31-oktabr kuni Moskva

vaqti bilan tungi 00.02 da

dunyoga keldi. Uning vazni

3 kilogramm-u 600 gramm

bo'lib, bo'yi 50 santimetr.

(Matbuot xabarlari asosida tayyorlandi)

47-modda: Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan

Aziz o'quvchilar, orangizda «Katta bo'lsam, o'qituvchi bo'laman», deya niyat qilayotgan o'g'il-qizlarning ko'pligi bizga yo'llayotgan xatlaringizdan ayon. Bu sharaflı kasbni egallash uchun esa unga chin dildan mehr qo'yish, bolalarni sevish lozimligini ham yaxshi bilasiz.



Bugungi suhbatdoshimiz ham bolaligidan muallima bo'lishni orzu qilib, o'z maqsadi sari intilgan Yarmuhammedova Ma'mura Abdullayevna bo'ladi. Ko'p yillar o'quvchilariga ona tili va adabiyot fanidan saboq bergan muallima o'z kasbining mohir ustasi bo'lgani bois, avvaliga o'z kasbining mohir ustasi direktor o'rinbosari, keyinchalik shu maktabga rahbar etib tayinlandi. Ayni kunda Ma'mura opa Olmazor tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limining o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruh rahbari vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda.

ORZU SARI ILK QADAM

– Ma'mura opa, bolalikdagi beg'ubor xotiralaringiz haqida so'zlab bersangiz.

– Bolaligim Eski shahar dahasining Mevazor mahallasida, katta va ahil oilada kechgan. Biz oilada o'n bir nafar farzand – besh o'g'il va olti qiz edik. Otam rahbar lavozimida ishlasalar ham juda kamtarin, mehribon inson edilar. Onam esa qattiqqo'l, talabchan va bir so'zli ayol bo'lganlar. O'qishimiz, kundalik ishlarimizni onam qattiq nazorat qilib, hattoki oliy o'quv yurtida o'qiganimizda ham baholarimizni tekshirib turardilar. Chunki hammamizning o'qimishli, oliy ma'lumotli bo'lishimizni xohlardilar. Hanuz yodimda, boshlang'ich sinfda daftrimga siyoh to'kilib ketib, ustozim kundalik daftrimga tanbeh so'zlarini yozgan kuni uyga kirishga botinolmay, bir soatcha yig'lab turgandim... Har yili oilamiz uchun yetti-sakkiz xil gazeta va uch-to'rt xil jurnalga obuna bo'lardik. Uyimizdagi kutubxonada to'rt mingdan ziyod kitoblarni bo'lardi. Kechqururlari barchamiz yig'ilib, turli kitoblar, she'rlar o'qir edik. O'sha paytlardayoq, ilk ustozim Sanobar opaga havas qilib, katta bo'lsam, o'qituvchi bo'laman, deya orzu qilardim. Orzuimga

intilib, o'rta maktabni a'lo baholarga tugatib, ToshDU (hozirgi O'ZMU)ning filologiya fakultetiga o'qishga kirganman. O'qishni tamomlab, Olmazor tumanidagi 46-maktabda o'qituvchi bo'lib ish boshladim. Bolalar dunyosiga kirib borganim sari, bu beg'ubor, sirli, sehrlı olamdan chiqqim kelmadi. Bu orzuim sari qo'ygan ilk qadamim edi. Hozirda «Kasbingiz nima?» deb so'rashsa, faxr bilan «O'qituvchi» deya olaman.

– Hozirgi kunda o'quvchilar qalbida kitobga mehr uyg'otish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

– Bugungi kundagi texnika taraqqiyoti, internet tizimining jadallik bilan hayotga kirib kelishi juda ko'p afzalliklarga ega, ammo kitobdan olinadigan badiiy zavq, ma'naviy ozuqaning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Shuning uchun maktablarda tashkil etilayotgan kitob marafonlari, kitobxonlar konferensiyalari, «Eng ko'p kitobxon», «Kim ko'p she'r biladi?» kabi ko'rik-tanlovlar bu borada olib borayotgan sa'y-harakatlar sirasiga kiradi.

– O'quvchi ma'naviyatini oshirish borasida tumaningizda qanday ishlar

amalg oshirilmoqda?

– Bu borada ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tadbirlar, shoir-yozuvchilar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli intellektual o'yinlar, she'r-xonlik kechalari, baxr-u bayt musobaqalari o'tkazilmoqda va yaxshi natijalar bermoqda. Bundan tashqari, 1-, 16-, 29-, 219-, 234-, 243-, 249-, 326-maktablarda o'quvchilarning sevimli nashrlariga obuna jarayoni boshlandi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari gazeta va jurnallarda chop etilayotgan she'r, hikoya, maqolalar muhokamasini o'tkazib, bu nashrga nisbatan o'quvchilar qalbida mehr uyg'otishga erishmoqdalar.

– «Tong yulduzi» o'quvchilariga tilaklaringiz...

– Eng avvalo, o'quvchilarning har tomonlama to'la-to'kis kamol topishlarini tilayman. «Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlislari ko'paysin.

Suhbatdosh: Gulyuz BAHODIR qizi



SHE'R – MA'NAVY KASHFIYOT

Do'stlik tuyg'usi qadimiy, ma'naviy qadriyat. Do'stlik, tinchlik, totuvlik, teng manfaatli munosabatlar shakllangan davlatlardan har birining davlat ramzlari, jumladan, bayrog'i bor.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Mustaqil O'zbekiston bayrog'i, shoir ta'biricha, oddiy rang va o'lchamdagi mato emas, balki yigirma yetti million, undan-da ko'proq qalbdan to'qilgan tug'. U ajdodlar ijodi, avlodlar baxti, o'zbek xalqining g'ururi, g'oya va mafkurasi, g'alla ham paxtazori, tomirdagi qoni qadriyati. Xushboq Rahimning ko'k-jini tog', dilini bog', ko'nglini chog',

umr kuzini qayta bahor aylagan Vatanda jam bo'lgan jamiki borliq – O'zbekiston va uning oy hamda o'n ikki yulduzli havorag bayrog'idir.

Inson oliy qadriyat. Uning qadami ish vaqti va bo'sh vaqtdan iborat. Ish vaqtida moddiy va ma'naviy boyliklar yaratiladi. Moddiy boylikni birovlar bilan baham ko'rsang, kamayadi, ma'naviy boy-

lik esa, aksincha, ko'payadi. Insonning o'zini tushunishi, bir butun olamning mayda bir zarrachasi ekanligini anglab yetishi oson emas. Oramizda, afsuski, hayotga nima uchun kelib, nima uchun ketayotganini loaqal bir marta o'ylab ko'rmaydigan insonlar ham topiladi. Inson qiyofasi bir-biriga nisbatan kam farq qiladi. Ularning ichki olami esa bir-biridan tamoman farq qiladi, bir-

biridan murakkabdir.

O'zini hurmat qilgan odam boshqalarni ham hurmat qiladi. O'zining kimligiga va nima ishlarga qodirligini anglab yashagan ma'naviyatli odam boshqalar uchun ham yashaydi.

Xushboq Rahim mustaqil hayotda yamoqday ajralib ko'zga tashlanuvchi kamchilik va qusurlarning kushandasini mustaqil fikrlovchi, ijodkor yoshlar timsolida ko'radi.

Shoirning nazarida, o'tmish yoki o'tish davri tesha zarbidan ko'kargan tirnoqqa o'xshaydi. Xasta tirnoqni yangi, sog'lom tirnoq surib chiqaradi. Sog'lom tirnoq shoirini g'ururlantiruvchi yurt bilimdon, kelajagi porloq o'g'il-qizlaridir.

Badiiy pishiq she'r ko'ngillarni yayratadi, qalbni quvontiradi. Kitobxonni suvdan olib o'tga, o'tdan olib suvga tashlaydi. She'rdagi dardning zalvori yig'laganlarni yupatadi, g'amdan yiroqlarni yig'latadi. Inson ruhini

osmonlarga ko'taradi. Urvoq ham umnon, gard ham gul, zar ham zargar vujudidagi yoniq lekin yashirin yulduzlarni oshkor aylaydi. She'r – ma'naviy kashfiyot. Kashfiyotning zamirida mashagqatli mehnat yotadi. Mashagqatli mehnatning oqibati esa maqtovlarga loyiq. Navoiy Hazratlarining «Sab'ayi sayyor» dostonida «Har kim bir ishda ko'p mehnat qilsa, shunday natijaga erishadi».

Chinakam mehnat ma'rifat bilan ma'naviyatning sarchashmasi. Chirani she'r yozgandan ko'ra, har so'z mag'zini chaqib, shu mag'zining har tomonini ham o'ylab, ham o'ynab she'r aytish yaxshiroqdir.

Toshtemir TURDIYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

(Davomi bor)

Yaqin o'tgan zamonda Sintaksis degan podsho, Morfologiya ismli malika bo'lib, ularning Egabek, Kesimbek ismli o'g'illari hamda Aniglovchi, To'ldiruvchi va Hol ismli qizlari bo'lgan ekan. Ular hamisha bir-birlarining kamchiliklarini tuzatib, yutuqlaridan quvonib, do'st, inoq bo'lib yashasharkan.

SAHNADAGI SINTAKSIS



Kunlardan bir kuni ularning ahilligini ko'rib, baxilligi tutgan yovuz kuchlar hujum qilibdi. Biroq, farzandlarning ota-onadan, ustozlaridan olgan saboqlari, aql-zakovati-yu bilimi foyda berib, dushmani ham do'stga aylantirishga erishibdi. Shunda podsho, do'stlik, ahillik barcha ezgu ishlarning kalitidir, debdi.

Bu kichik sahna ko'rinishi barcha o'quvchilarga birdek yoqdi.

Shundan so'ng, sahnaga Alpomish, Barchinoy va Qorajon chiqdi. Alpomishning mardligi, jasurligi, Barchinoyning donoligi, zukkoligi yana g'alaba qozondi.



Shuningdek, maktabning 9-«A» sinf o'quvchilari tomonidan namoyish etilgan videolavha tomoshabinlar qalbini larzaga soldi.

9-«A» sinf o'quvchilariga boshlang'ich sinfda saboq bergan, bilim maskanining sobiq rahbari marhuma Muxtabar opa haqidagi lavhalar, iliq xotiralar yig'ilganlarni befarq qoldirmadi. Muxtabar opaning siymosini monitor orqali ko'rgan shogirdlari ko'zida yosh halqalandi. «Garchi oramizda bo'lmasangizda, hamisha qalbimizdasiz, ustoz», deyishdi ular.

Mirobod tumanidagi 328-maktabda o'tkazilgan bu tadbir o'quvchilarda katta taassurot qoldirgani shubhasiz. 5-«A», 9-«A» hamda 8-9-sinf o'quvchilarining quvnoq chiqishlari, o'g'il bolalarning faolligi bois tadbir yanada jonli va qiziqarli o'tdi.

«Tong yulduzi» gazetasi hamda «G'uncha» jurnali xodimlarining sovg'alari — gazeta va jurnallar, kitoblar ham o'z egalarini topdi.

Eng faol va a'lochi o'quvchilar ustozlari tomonidan rag'batlantirildi.

Biz ham ushbu dargohda o'tmishini, buyuk tarixini e'zozlab, ulug'laydigan jannatmonand yurtimizning bugunini qadrlab asraydigan o'g'il-qizlar tarbiyalanayotganiga guvoh bo'ldik.

Feruza SOYIBJON qizi,
Ma'mura YIGITALI qizi



«MEHRJON SAYLI»GA MARHAMAT!

Kuz fasliga bejiz saxovatli deya ta'rif berilmaydi. U dasturxonlarimizni shirasi tilyor, lazizli mevalar bilan to'ldiradi. Hosilidan ko'ngli to'lgan bog'bon-u dehqonlar «Mehrijon sayli»ni o'tkazishadi.

Bunday sayllar yurtimizning barcha go'shalarida uyushtiriladi. Jumladan, poytaxtimizdagi 228-maktabning 3-«G» sinf o'quvchilari ham hosil bayrami o'tkazishdi. Kuz ne'matlaridan dasturxon bezatishdi, turli daraxtlarning barglaridan gerbariylar yasashdi. Musiqa o'qituvchisi Shohista opa Rasulova jo'rligida «Poliz topishmoqlari» qo'shig'ini kuylashdi. Shohabbosxon Yilbob, Mohlaroy kuz malikasi, Abdurahim bog'bon, Boburbek dehqon bo'lib, to'rt faslning xislatidan so'zlashdi, kuz



ne'matlaridan ulashishdi.

So'ngra, «Mevalar» va «Sabzavotlar» guruhlariga bo'linib, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»ga bag'ishlab iqtisodga oid o'yin o'ynashdi. Ustozlari Aziza Yo'ldoshevaning topshiriqlarini bajarib, «Mehrijon sayli»ga oid rasmlar chizishdi, insholar yozishdi. Ijodiy ishlaridan tashkil qilingan ko'rgazmani kichikintoylar katta qiziqish bilan tomosha qilishdi. «Bayram dasturxoniga» bizni, sizni, qo'ying-chi, barchamizni taklif qilishdi.

O'z muxbirimiz

ZUBAYDA olgan surat

TAFAKKUR O'FTOBI

Toshloq tuman axborot resurs markazida «Tafakkur oftobi» deb nomlangan badiiy kecha o'tkazildi. Tadbirida axborot resurs markazining barcha tarmoqlaridagi faol kitobxonlar ishtirok etdilar. Ular kitobni ta'riflovchi she'rlar o'qishdi, hikmatli so'zlardan namunalar aytib berishdi. Turli mavzudagi savol-javoblar kitobxonlarning bilimdonlik darajasini oshirishga xizmat qildi.

«Har doim kitob hamroh bo'lsin» shiori ostida yakunlangan tadbirida faol kitobxonlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Adabiyotga ishtiyoqim balandligi bois, sakkiz yoshimdan she'rlar mashq qilib kelaman. Juda ko'p kitob o'qib, uqqanlarim asosida mitti qatralar, hikoyalar yozgaman. Ular tuman gazetasi «Parkent hayoti»da chop etilgan kuni men uchun haqiqiy bayram bo'ladi.



SHUKRONALIK

Bu yil «Yangi avlod – 2011» bolalar ijodiyot festivalida qatnashdim. Kuni kecha bo'lib o'tgan viloyat saralash bosqichida «F» nazm va nasr yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdim. Omadni qarangki, menga «Shukronalik» mavzusi tushibdi. Yurtimiz tinchligi, turmushimiz farovonligi, biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar haqida to'liqlanib, faxrlanib insho yozdim va uni sahnada o'qib berdim. Zalda yangragan olqishlardan bildimki, ijodiy ishim hammaga manzur bo'ldi.

Qo'lga kiritgan bu yutug'im uchun ustozim Rahima opa Mirxoliqova hamda oyijonimdan behad minnatdorman.

Dilsora ABDUSATTOROVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi

YUZZLARIDA MEHR NURI BOR

Ilm olish igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi. Ilm berish-chi?

Undan-da mashaqqatli, to'g'rimi? Bu o'ta mas'uliyatli vazifani mehrdaryo ustozlarimiz o'z zimmalariga oladilar. Shu sababdan ham, shogird yutug'i ustozning ko'ziga nur, umriga umr baxsh eta oladi. Chunki ustoz o'z shogirdi orqali mashaqqatli mehnati samarasini his etadi. Ana shunday hollarda ustozlarning yuz-ko'zlaridan mehr nuri yog'ila boshlasa, ajab emas...

Ocherkimiz qahramoni Risolat opa Ismoilova ham ana shunday daryodil ustozlarimizdan biri. Opaning beg'ubor bolalik damlari Toshkentning Rakat mahallasida o'tdi. Poytaxtdagi 73-maktabda tahsil olib yurgan chog'laridanoq ingliz tilini katta qiziqish bilan o'rgana boshladi. Muallimasiga havas qilib, o'qituvchi bo'lishni diliga tugdi. Qizchadagi bu ishtiyoqni o'z vaqtida payqagan chet tili ustoz birgina Risolat uchun to'garak ochib, u bilan jiddiy shug'ullana boshladi...

Lekin bobosi uning shifokor bo'lishini niyat qilgandi. Sinf rahbari Inoyat opa, nabirangizni o'zi qiziqqan kasbga bering, deya maslahat bergach, fikri o'zgargandi. To'g'ri-da, inson o'z kasbini sevsa, unga mehr qo'ysa, ishida unum, baraka bo'ladi, jamiyatga ham, O'rta maktabni a'lo baholarga



bitirgan Risolat opa chet tillar pedagogika institutiga o'qishga kirib, uni ham muvaffaqiyatli tamomladilar. Pedagoglik faoliyatini dastlab elektr-mexanika texnikumida boshlagan ustoz 1968-yildan o'zi tahsil olgan oliygoh talabalariga saboq bera boshladilar.

Keyinchalik poytaxtimizdagi 41-o'rta maktabda ingliz tili fani o'qituvchisi, 98-maktab-internatda tarbiyachi vazifalarida samarali mehnat qildilar.

Inson o'z kasbiga astoydil mehr qo'ysa, uning zahmati-yu mashaqqatlari ham unga sezilmas, aksincha, huzur baxsh etarkan. Risolat opani tanigan, bilganlar u kishining biror marta bo'lsa-da, o'qituvchilik kasbini tanlaganlaridan afsuslanganliklarini, ishlaridan nolanlarini, charchadim, horidim deganlarini eslay olishmaydi.

Bir necha yillar mobaynida O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti til o'qitish markazida katta o'qituvchi bo'lib ishlagan opa ayni damda besh nafar farzandlari, to'qqiz nafar nabiralari ardog'ida umr yo'ldoshi Tohir aka Mullaboyev bilan birgalikda keksalik gashtini suryaptilar.

Hademay umrining 70 bahorini qarshilaydigan onaxonimizni ko'p sonli shogirdlari nomidan muborakbod etamiz! Yuzingizdan yog'ilayotgan mehr nuri yana ko'plab shogirdlaringiz qalbini nurafshon qilib turaversin!

Feruza JALILOVA

SURXONDARYOLIKLAR FAOL

Darhaqiqat, keyingi paytlarda surxondaryolik o'quvchilarimiz faollik bobida barcha tengdoshlariga o'rnak bo'lishyapti. Tahririyatimizga kelayotgan maktublarning ham anchagina qismi shu viloyat hisobiga to'g'ri kelyapti. Ayniqsa, ularning gazetamizda e'lon qilinayotgan tanlovlardagi faol ishtiroki alohida e'tirofga loyiq.

Jumladan, «Bola huquqlari bolalar nigohida» nomli tanlovimizda ham peshqadamlikni qo'ldan berishmayapti.

Quyida Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi 22-maktab o'quvchilarining tanlovga yo'llagan ijodiy ishlaridan namunalar o'qiyisiz.



O'GAY ONA

Bor ekan-u, yo'q ekan. Qadimdams, ayni shu zamonda katta shaharda oddiygina bir oila istiqomat qilarkan. Rustam va Go'zal ana shu oila bag'rida baxtli, farovon hayot kechirisharkan.

Kunlarning birida ularning turmushiga qora kunlar soya solibdi. Bolalarning mehribon onasi og'ir dardga chalinib, olamdan o'tibdi. Oradan bir yil o'tib ota farzandlariga onalik qiladi, degan niyatta bir ayolga uylanibdi. Avvaliga mehribondek ko'ringan o'gay ona bir oydan so'ng xurmacha qiliqlar chiqara boshlabdi. Uning ko'ziga Rustam va Go'zal balo-qazodek ko'rinar, ularga qo'pol muomalada bo'lardi. Bolalarni maktabga ham chiqarmay qo'yibdi. Maktabga yuboring, deya yalinishlari behuda ketibdi. O'gay ona ularni har tong, pul topib kelinglar, deya uydan haydab solarkan. Noiloj qolgan aka-singil shahar ko'chalarida tilanchilik qilishga majbur bo'lishibdi. Bu holni bilgan otasining bolalariga rahmi kelardi-yu, qo'ldan hech narsa kelmadi.

Bir kuni ko'chada tilanchilik qilib yurgan aka-singilni ko'rib qolgan Rustamning ustozlari uni onasining oldiga olib boradi va shunday deydi:

–Voyaga yetmagan bolalarni pul topishga majbur qilishga haqqingiz yo'q. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlidir. Bu Konstitutsiyamizning 64-moddasida belgilab qo'yilgan,– debdi.

Bu voqealardan nihoyatda ta'sirlangan ota xotinini haydab yuboribdi va ular avvalgidek farovon hayot kechira boshlabdilar.

Gulmira DONIYEVA,
9-sinf o'quvchisi



Ravshan aka bilan Nazira opaning yakka-yu yolg'iz Murodbek ismli o'g'li bor bo'lib, ota-onasi Murodbekni yer-u ko'kka ishonishmasdan yurar ekan.

Kunlarning birida ko'chada o'ynab yurgan bu bolakay bexosdan yiqilib tushibdi va og'ir jarohat olibdi. Ota-onasi uni zudlik bilan shifoxonaga olib borishibdi va shifokorlarga Murodbekning oyoqqa turishi uchun hech narsani ayamasliklarini aytishibdi. Lekin shifokorlarning barcha sa'y-harakatlari behuda ketibdi. Taqdir

BILIM OLISH BAXTI

taqozosi bilan Murodbek nogironlar aravachasiga mixlanib qolibdi.

Oradan yillar o'tibdi. Murodbek yetti yoshga to'libdi. U har kuni deraza yonida o'tirib, maktabga borayotgan tengdoshlariga havas bilan termulib o'tirarkan. Bu holni ko'rgan onasi maktabga borib, direktordan Murodbek uchun o'qituvchi ajratishlarini so'rabdi. Direktor esa, bizning maktabimizda nogiron o'quvchiga

dars beradigan bekorch o'qituvchi yo'q, debdi norozi ohangda. Shunda Nazira opa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega», deb yozib qo'yilgan, debdi. Bu gapdan so'ng direktor uzoq o'ylanib, Murodbek uchun o'qituvchi ajratishga rozi bo'libdi. O'sha kundan buyon Murodbek bilim olish baxtiga muyassar bo'libdi.

Hafiza ASHUROVA,
9-sinf o'quvchisi



S.P.GOVIL, hind shoiri

**ZITANING
QO'G'IRCHOG'I**

Zitaning qo'g'irchog'i
Kattakon bo'lib qoldi.
Xuddi kelinchak deysiz,
Oppog ko'ylagin ko'rib.
Zavqlanib buvisi der:
– Qizim, qo'g'irchog'ingni
Kuyovga bersakmikan,
Sochini mayda o'rib?



Fam XO, vietnam shoiri

YONG'IN MASHINASI

Rangi-ro'yi qip-qizil
Qorni to'la suv.
Xabar kelgan tomonga
Yeldek uchar u.
Shovqinidan go'yoki,
Titir osmon-yer:
– Yo'l beringlar,
Yo'l bering!
Yonyapti qayer?!



Toshpo'lat NE'MAT, uyg'ur shoiri

**GULZORAMNING
JAVOBI**

Chinni piyolasini
Sindirib qo'yib bexos,
Izlab topdi bahona
Gulzoram o'ziga xos.
Tushlik payti oyisi:
– Chinning qani, Gulzoram? –
Deb so'rasa, u dedi:
– Uxlayapti...
Olib dam!

Roman SEE, rus shoiri

CHUMOLI


Tarvuzga chiqib,
Chumoli shartta.
O'ylar: «Yer shari
namuncha katta?»



Valentin BERESTOV, rus shoiri

BARABANCHI

Qulog'idan tortishib,
Qo'yishmay hol-joniga,
Keltirishdi quyoni
Barabanning yoniga.
– Chalmayman! – der Quyonyoy,
Oyoq tirab, urib do'q:
– Ko'rmayapman... sabzini,
Yana kayfiyatim yo'q.



Sergey MAXOTIN, Sankt-Peterburg

NAVBATCHILAR

B-i-r soat shimarib yeng,
Sinfni tozaladik deng!
Partalarning ostidan
Topdik, qand-qurs... charm g'oz.
Yuz dona xat parchasi,
Yuz dona konfet qog'oz.
O'qigan edik bugun,
Atigi ikki soat.
Qanday ulguridik ekan,
Yozmoqlikka shuncha xat?

Abdurahmon AKBAR tarjimai

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Peppi qo'yarda-qo'ymay marjonni
Annikaning bo'yniga ilib qo'ydi. Aslida marjon
chindan ham Peppiniki edi. Kecha kechqurun
uni o'zi kavakka yashirib qo'ygan edi.

Peppi hovli chetida yotgan ulkan yapaloq
toshga tikilib qoldi.

– Bu tosh namuncha yaltiramasa?! Uning
tagida, albatta, tilla bor! – dedi bilag'onlik
bilan. Peppi polvon qiz emasmi, ko'k toshni bir
qo'llab ag'dardi-da, sariq tanga oldi.

bolakaylar bir zunda uni o'rab olishdi.

– Uringlar uni! – deb baqirdi bolalarning
kattasi. – Bundan keyin bizning hovlimizga burnini
tiqmasin!

– Voy, bu Ville-ku! – qichqirdi Annika, – hozir
uni do'pposlashadi. Endi nima qilamiz, Tommi?

– Anavi barvastasi Bent, – dedi Tommi, – juda
yomon bola. Hamma bilan urishgani urishgan. Yana
uyalmay beshatasi bir qizga yopishmoqchi.

Bolalar endi Villega qo'l ko'tarmoqchi
bo'lganlarida, arqonini sudrab Peppi kelib qoldi.
U sekin Bentga yaqinlashdi-da, yelkasidan turtidi.

ha!..

Bent gornini ushlab, egilib, xaxolab kuldi.
Uning sheriklari ham Peppini o'rab olib, kalaka
qila boshladilar.

– Mallavoy, kallavoy!

– Uzunpaypoq, chiptakovush qiz!

– Aytmoqchi, anavi tufliyingni menga berib
tur, bir qayiq qilib minib yuray! – deb tegishdi
Bent.

Peppi ularning gapiga parvo qilmay, bir
chetda iljayib turaverdi. Bent bu qiz
qo'rqanidan miq etmay turibdi, deb o'yladimi,
Peppini itarib yubordi. Peppi chaqqonlik bilan
Bentni yoqasidan oldi-yu, bor kuchi bilan
osmonga qarab otdi. Bent qayrag'ochning
baland shoxiga osilib qoldi. Ikkinchi bolani ham
zarb bilan ko'tarib, narigi daraxtning tepasiga
mindirib qo'ydi.

Uchinchisini yog'och panjaraning narigi
tomoniga otib yubordi. To'rtinchi bola qochib
qolmoqchi edi, Peppi uni oyog'idan ushlab, o'n
metrcha naridagi gulzorga qarab uloqtirdi.
Beshinchi bola ham ko'radiganini ko'rdi. U
kiraverishdagi bolalar aravachasiga tushib,
tiqilib qoldi. Bu manzaraga Tommi, Annika,
Villegina emas, hamma hayron edi. Ta'zirini
yegan besh bezori esa bir og'iz gapirolmasdan,
biri daraxt shoxida, ikkinchisi gulzorda, yana
biri aravachada dag'-dag' titrab turishardi.

Peppi Bentga qarab xitob qildi:

– Yaxshi o'tiribsanmi, quyonyurak? O'tiraver.
Bundan keyin Villeni chertsang, ayab
o'tirmayman, bildingmi? Bent og'iz ochmadi.
Peppi uchchala o'rtog'ini quchoqladi.

– Qani, ketdik biznikiga! Men hali zamon
non yopib kelgan edim, pishib, bizlarni kutib
yotgandir. Bir nonxo'rlik qilamiz.

To'rtta o'rtog' Peppinikiga mehmon bo'lgani
ketishdi...

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOEYEV tarjimai

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi

– Ana, aytmadimmi? – dedi
quvonib. – Ma, Tommi, bu
senga! Bir kuningga ishlatar-
san.

Tanga, albatta, tilla emasdi-
yu, lekin yap-yangi, qirol surati
tushirilgan edi.

Aka-singil, maymuncha
Nelson Peppiga ergashib dala
hovlida, ko'chada ancha
yurdilar. Peppi fil suyagi, tovu-
sati, chig'anoq kabi o'ziga tegishli
narsalarni har burchakdan topgan
bo'lib, yangi do'stlariga hadya qildi.

– Endi arg'imchoq o'ynaymiz, – dedi
u va arqon olib chiqqani uyiga kirib ketdi.

Shu payt ro'paradagi dala hovlining
darvozasidan yoshgina bir qiz yugurib
chiqdi. Uning rangida rang yo'q, har
tomonga alanglab yig'lardi. Qizning
ortidan quvlab kelayotgan besh nafar



– Hey, bola,
menimcha, bu
ishlaring insofdan
emas. Kichkina qiz
bilan olishmoqchi
bo'lsalaring, bitta-
bitta kelinglar.
O'rgildim senday
jo'jxo'rozlardan!
Bent orqasiga
o'girildi. Ro'parasida
oyoqlariga ikki xil rangdagi
uzun paypoq kiygan,
mallasochli bir qiz turardi.
Bent uni ilgari ko'rmagan edi.
Shuning uchun avvaliga qizga
bir zum tikilib turdi. Keyin
lablarini burib, istehzoli kuldi.

– Bolalar, Villeni qo'yib
turinglar-da, mana bu
tasqaraga qaranglar! Xuddi
cho'pdan yasalgan
odamchaga o'xshaydi. Vah-ha-

2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili

Zafarobod tumani-dagi 8-umumta'lim markaziga qatnamaydigan bo'lishdi. Maktabining yordamchi xo'jaligidagi bir nechta sigir va tovuqlarni o'quvchilarning o'zlari parvarishlashyapti. 8-sinf o'quvchilari Temur Salimov, Jahongir Shaykatov, Komil Ashurov kabilar jonivorlar parvarishiga alohida ahamiyat berib, ularning ozuqa turlarini ko'paytirmoqda.



**MAKTAB
FOYDA KO'RD!**



Oliy toifali pedagog, xalq ta'limi a'lochisi Go'zal Beknazarovanning ishbilarmonligi, tadbirkorligi tufayli tikuv-bichuv, gilam to'qish va uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash sexlari ishga tushirildi. Tez orada tikuv-bichuv sexi sahni so'zana parda, yostiqlid kabi uy-ro'zg'or buyumlari bilan to'lib, Dilorom Haytboyeva, Sevara Bektemirova, Shohista Alqorova kabi chevar o'quvchilar soni ortib bordi. Daromadga yarasha buromad deganlaridek, so'nggi sakkiz oy ichida yuqorida tilga olingan xizmat turlari hisobidan maktab 900 ming so'm foyda ko'rdi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

**Xo'sh, kitob
o'qishni
o'rgatib
bo'ladimi?**

**Aynan shu
savol bugun
ko'pchilikni
birday
qiziqtiradi.
Bu borada
Respublika
bolalar
kutubxonasida
qanday amaliy
tadbirlar olib
borilayotganini
bilan
qiziqdik:**

– Bugungi kunda kutubxonachilik o'zining yangi umrini yashayapti, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Negaki, uning barcha jabhalarga ta'siri kuchli. Ya'ni, kitobga bo'lgan mehr tufayli barcha ilmlarning eshiklari ochiladi. Shuning uchun ham bolaga maktab yoshidan kitob o'qishni, kutubxonadan foydalanish qoidalarini o'rgatib borish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

– Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob bilan inoqlashuvini ta'minlash o'ziga xos yondashuvni talab etadi, – deydi Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy uslubiy bo'limi boshlig'i Nazira Abdusamatova. – Maktab kutubxonachi-

lari va barcha mutaxassislar bolalar qalbida kitobga mehri shakllantirish uchun reja asosida ish olib borishlari kerak. Bu faoliyatining shakl va usullarini tanlashda shu narsaga e'tibor qaratishlari lozimki, bu yoshda bolalarning ruhiy olamida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularning hissiyotlari, kechinmalari boyib va murakkablashib boradi. Bolalarni mutoalaga o'rgatish jarayoni dastlab murakkabroq kechadi. Ular doim kattalarning yaxshimi, yomonmi, xatti-harakatlariga kuchli taqlid qilishadi. Shuning uchun ham bu ishda shoshma-shosharlik yaramaydi. Bolaning murg'ak tasavvurini tasodifiy, yengil-yelpi havaskor yozuvchilarning kitoblari bilan boyitmaslik lozim.

Respublika bolalar kutubxonasida o'ziga xos ijodiy muhit bo'lib, o'quv zallari bolalarning yoshiga qarab tabaqalangan. Kutubxonaga maktabga tayyorlov guruhidan boshlab 1-9-sinfacha bo'lgan bolalar va ularga rahbarlik qiluvchilar (o'qituvchilar, ot-onalar) a'zo bo'lishlari mumkin. Kutubxonadan kitoblar 10 kun muddatga beriladi. Elektron kutubxona va Jahon axborot resurslari foydalanish elektron zali muayyan tartibda yosh kitobxonlarga xizmat qilyapti. Kutubxona xodimlari bolalarga qanday qilib Internet va Ziyonet tarmog'idan hamda yaqinda faoliyat boshlagan Kitob.uz saytidan



**O'RGATIB
BO'LADIMI?**

Kulgu inson umrini uzaytirishi ayon, qachonki, u haqiqiy, samimiy kulgu bo'lsa, albatta. Kulguning soxtasi ham bo'larkanmi, deysizmi? Menimcha, bo'ladi. Ko'chako'yda, jamoat transportlarida tengdosh qizlarimizni ko'p kuzataman: ayrimlarining o'zgalari e'tiborini tortish maqsadida baland



**HAR NARSANING
ME'YORI YAXSHI**

ovozda gapirishlari, bir-birlarini turtib kulishlari kishi g'ashini keltiradi. Shunda donolarimizning quyidagi fikrlari yodimga tushadi: gulgu'unchasi xandon otib kulgani uchun uni shamol uchirib ketgan ekan. Odobli qizlar kulish uchun og'iz ochmaydi.

Shunday ekan, har narsaning, jumladan, kulguning ham chiroyli, me'yorida bo'lgani yaxshi. O'quvchi singillarimga ham shuni maslahat beraman: qiz bolaga xos bo'lgan odob-axloq qoidalariga hozirdanoq amal qilishga odatlaning.

Nigora SULTONOVA,
Toshkent moliya instituti talabasi



**ZIYRAK, AZIZA
ZUKKO**

Aziza Tojiddinova asli buxorolik. U ayni paytda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-maktabning 7-«B» sinfida tahsil olyapti. Unga a'lochi, jamoatchi, zukko, ziyarak qiz deya ta'rif berishadi. Bizga qolsa, ular qatoriga iqtidorli, izlanuvchan degan ta'riflarni ham qo'shgan bo'lardik. Chunki Azizaning chizgan rasmlari, yozgan she'rlari, yaratgan liboslarini ko'rib, hayratlandik. Uning kelgusidagi niyatlari katta: mohir dizayner bo'lib, milliylik va zamonaviylik uyg'unligida liboslar yaratish va ularni chet ellarda bo'lib o'tadigan ko'rgazmalarda namoyish etish. Bu yo'lda hozirdanoq tinimsiz izlanyapti. Agar chet tillarini mukammal bilsa, nur ustiga a'lo nur ekanligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham ingliz tilini puxta o'rganyapti.

Tinib-tinchimas bu tengdoshimizga o'qish va izlanishlarida omad tilab qolamiz!

AZIZA,
yosh muxbirimiz

foydalanish qoidalarini o'rgatishdi.

Shuningdek, reja asosida mashhur yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy kechalar o'tkazib turiladi.

Bolalar bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlari uchun bir nechta to'garaklar ham tashkil qilingan.

–Ba'zi bolalar atrofda qilarga taqlidan qo'liga kitob olsa, boshqalari oila muhiti ta'sirida mutolaaga kirishadi, – deydi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor muovini Umida Raimbekova. – Ayrim bolalar esa, ilk bor qo'liga olgan kitobni uning badiiy bezaklari ta'sirida kitobni yoqtirib qolishadi. O'zingiz bir eslab ko'ring-a, bolaligingizda birinchi o'qigan kitobingizni. Kitobda nima o'qiganingiz emas, balki o'sha ertak qahramonlarining yorug' ranglar bilan ishlangan suratlari ko'z oldingizdan o'tadi. Demak, kitob o'qishning tasviriy san'at orqali o'rgatish samaraliroq ekan. Shu bois, kitob tanlashda kutubxonachi ana shu jihatlarga e'tibor qaratishi lozim.

Biz Respublika Bolalar kutubxonasi misolida farzandlarimizga beriladigan ilk ma'naviy ko'mak, ya'ni ularga kitob o'qishni o'rgatish xususida fikrlashdik. Bolalar o'qigan kitoblarning mazmunini ifodalash bilan atrofda yuz berayotgan hayotiy voqealarga munosabatlarini bildirishga va uning yanada go'zal bo'lishini ifodalashga urinishadi. Bu, albatta, mutolaaning ijobiy ta'siri. Ma'lum yoshga borib, bolalarga mustaqil o'qish asoslari shakllana boshlaydi. O'qishga qiziqishni hosil qilishda, ayniqsa, kitob ko'rgazmalari, kitob javonlari yonidagi suhbatlar, adabiyotlar tahlili kabi tadbirlar katta samara beradi.


Davronbek RAJABOV



Ob-havo darakehilari

Hasharotlar turiga mansub ninachilarning antiqa, o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu hasharotlar ob-havoni hech yanglishmay aniqlab, buni o'z harakatlari bilan namoyon qilishadi. Masalan, yomg'ir yog'ishidan oldin keskin harakat bilan uchishsa, bo'ron turishidan avval panaroq joyga uymalashib, bo'rondan himoyalanihadi. Ma'lumotlarga ko'ra, sinoptiklarning ma'lumotlari bilan ninachilarning xatti-harakati solishtirilganda, sayyoramiz ob-havosini sinoptiklardan aniqroq bilishgani isbotlangan.

52 yil o'qigan odam



Sayyoramizda kim ko'p umrini o'qishga sarflaganini bilasizmi? Britaniyalik Robert Kronin eng uzoq vaqt universitetda tahsil olgan talaba hisoblanadi. U biologiya fanini o'rganishni 1948-yilning 9-fevralida boshlagan. 2000-yilning 30-mayiga kelib esa tugatgan. Shunday qilib, Robert 52 yil o'qidi. U Diplom olayotgan vaqtda 72 yoshda edi.

DILOROM tayyorladi

*Qadrlit o'quvchilar,
xabaringiz bor, kuni
kecha xalqimizning
ma'naviy hayotida
muhim o'rin tutgan
muborak Qurbon
hayitini keng
tantana qildik.
Qadimdan bizga
meros bo'lib
kelayotgan milliy urf-
odatlarimizga ko'ra,
bu kuni qarindoshlar
bir-birlarini
yo'qlashadi,
qariyalar, bemorlar
holidan xabar
olinadi, qo'shnilar
bir-birlarinikiga
milliy taomlarimizdan
osh, bo'g'irsog'-u
turtli shirinliklar
chiqarishadi. Juda
chiroyli, ibratli
odatlarimiz bor-a!*

Aziz qizaloqlar, onangiz bo'g'irsog pishirayotganda ko'zingiz tushgandir, ular margarin yoki mol yog'idan foydalanishadi. Men esa sizlarga yog'-margarin o'rniga xamiriga tvorog solib, bo'g'irsog tayyorlashni o'rgataman.

TVOROGLI BO'G'IRSOQ

6 dona tuxumning oqini ajratib olib, mikser yordamida yaxshilab ko'pirtiring. Bir stakan shakarni oz-ozdan solib, ko'pirtirishda davom eting. Tuxumning sarig'ini ham qo'shib, aralashtiring. 300-400 gramm tvorog, yarim choy qoshiqda iste'mol sodasi, bir chimdim tuz, 4-5 stakan un qo'shib, xamir qoring. Xamir tingach, mayda zuvalachalarga bo'lib, qizdirilgan yog'da o'rtacha olovda qovurib oling.

YONG'OQLI SHIRIN KULCHA

Bu shirinlikni tayyorlash uchun 200 gramm margarin, yarim stakan qatiq, 3 dona tuxum sarig'i, bir piyola shakar, bir piyola tozalangan yong'oq va 4-5 stakan un kerak bo'ladi.



Un bilan margarinni yaxshilab uqalab olasiz. Alohida idishga qatiq, shakar va tuxumning sarig'ini solib aralashtirasiz. Unga maydalangan yong'oqni qo'shib, margarinli qorishmaning ustiga solib, yumshoq xamir qorasiz.

Biroz tingandan so'ng, gaz patnisiga turli shakllarda terib chiqing. Gaz pechida 20-25 daqiqa davomida pishirib oling. Pishgach, ustini shakar upasi bilan bezating.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Surxondaryo eli o'zining yuzdan ortiq zabardast baxshilarni taniydi. Ulardan juda ko'plab doston va termalar yozib olingan. Namunalari keltiramiz: Bo'ri baxshi Ahmedovdan

dov, A.Qahhorov kabi o'zbek folklorshunos olimlari va shu sohaning boshqa tadqiqotchilari uyushtirgan ekspeditsiyalar har gal folklor xazinasini yangi-yangi dostonlar, termalar, qo'shiqlar kabi

xususiyatlaridan biri shundaki, ularda fikr to'rtliklar asosida beriladi. Ular tilining soddaligi, ravonligi, iboralarning o'tkirliigi, siqiligi bilan qimmatlidir. Mazmunan mungli, iztirobli, xazin ovozda yangragan o'tmish qo'shiqlari bilan tanishsak, ijodkorlarning mashaqqatli hayoti ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Osmondagi bo'to'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Yuragimning dardini,
So'zlamasang ne bo'lg'ay?
Yoki:
Chumolining belini,

Qilday emish, deyishdi.
Boy buvaning uyini,
Zindon emish, deyishdi.

Ayniqsa, Sherobod massividagi xalq qo'shiqlarida xalq qahramonlarini kuylash, erk va ozodlik uchun kurashgan fidoyilarni madh etish, ulug'lash g'oyalari yorqin ko'rinadi.

Shu bilan birga, yerdagi qo'shiqlarda o'tmishdagi og'ir turmushdan norozilik, adolatsizlikka qarshi kurash ohanglari eshitilib turadi.

Quyidagi termalarga e'tibor bering:

Osmonda oq bulut,
Jabr bo'lmay nimadir.
Bosqinchi yurgan yo'llarda,
Jabr bo'lmay nimadir.

Xalq qo'shiqlarida o'tkir satira o'ti bilan fosh qilish, hajv etish orqali xalq ruhiga yot ko'rinishlarni, ya'ni tekinoxlik, yalqovlik, vafosizlik, subutsizlik, manfaatparastlik, axloqsizlik kabi qator illatlar murosasizlik bilan goralanadi. Ana shunday ta'sirchan va ommabopligi bilan diqqatni tortadi.

(TAMOM)

Dilorom RUSTAMOVA,
Termiz Davlat universiteti filologiya
fakulteti 2-bosqich talabasi

SURXON BAXSHICHILIGI MAKTABI

«Alpomish», Mamatrahim baxshidan «Avazxonning zardegarga borishi», Chori Qiyom o'g'lidan «Malla savdogar», Eshmurod baxshidan «Shaytonoma», Toshmurod baxshidan «Arg'uvon», Eshqobil shoir Qo'shoqovdan «Oysuluv» kabi dostonlar yozib olingan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan xalq baxshilarining ayrimlari ba'zi dostonlarni yangicha talqinini yaratganlar. Masalan, Toshmurod To'ra o'g'li, Qodir shoir, Eshqobil shoir ham «Malla savdogar»ning bir necha talqinlarini aytganlar. Bu dostonlarning ko'pchiligi Fanlar akademiyasida, ba'zilar esa qo'limizda saqlanmoqda.

M.Saidov, T.Mirzayev, M.Muro-

ajoyib so'z durdonalari bilan boyitadi.

Ammo bu vohada xalq og'zaki ijodining o'rganilmagan qirralari ham bor. Buni biz ko'pincha xalq qo'shiqlari sohasida uchratamiz.

O'rdak ko'llarda bo'lar,
Lochin cho'llarda bo'lar.
Ketgan yorim kellar deb,
Ko'zim yo'llarda bo'lar.

Yoki:
Chumchuqlar chirqillaydi,
Shom bo'lganga o'xshaydi.
Darvoza taqillaydi,
Yor kelganga o'xshaydi.
Yoki yana bir misol:
Qirdan nari qirq ovul,
Tomga qo'ymas qirg'ovul.
Qirq kapani to'zg'itar,
Qibladan turgan dovul.

Xalq qo'shiqlarining o'ziga xos



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchi:
Axtamqul KARIM

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31180
Buyurtma N: J-3088

TONG
yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'iasi.